



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari

1/S-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/1 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Мадримов Фархат Махсембаевич</i> СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1920-1924 ГОДАХ	12-18
<i>Алимджанов Бахтиёр Абдиҳакимович</i> АНТРОПОЛОГИЯ ИМПЕРСКОЙ ВЛАСТИ: ХАКЕНТСКИЕ ЗЕМЛИ И АДВОКАТ С. ЛАПИН	19-23
<i>Чориев Шохрух Холтура угли</i> ИСТОРИОГРАФИЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА В 40-90-Е ГОДЫ XX ВЕКА	24-35
<i>Najmuddinov Boburmirzo Zuhriddin o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING 1917-1943-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR DA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI	36-43
<i>Esonova Nilufar</i> SANOAT SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK MUNOSABATLAR TARIXINING O'RGANILISHI: TAHLIL VA NATIJALAR (1991-2018-YILLAR)	44-47
<i>Qarshiyev Ahmad, Jumayev Abdimo'min, Bebitov Maqsud</i> DENOV BEKLIGIDA MAVJUD JOY NOMLARIGA OID MULOHAZALAR	48-55
<i>Qurbanov Abbos</i> MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYODA YENCIL SANOAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	56-59
<i>Abduraimova Sabohat Ergash qizi</i> BUXORO AMRLIGI DAVRIDA CHIROQCHI BEKLIGI AHOLISINING TURMUSH TARZI	60-65

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Karjavova Xurshida Abdumalikovna</i> MAHALLA INSTITUTINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	66-73
<i>Pardayev Erkin Egamberdi o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	74-82
<i>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</i> O'ZBEKISTON POCHTA BOZORIDA XUSUSIY POCHTA KORXONALARINING TUTGAN O'RNI (BTS, DMS, EMU POCHTALARI MISOLIDA)	83-86
<i>Чинорова Шаҳодат Мансур кизи, Нормуродов Ҳусан Эшмаҳматовиҷ</i> ЗНАЧЕНИЕ ТАРГЕТИРОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	87-93
<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> GREEN BONDS: FINANCING RESOURCE CONSERVATION FOR A SUSTAINABLE FUTURE IN FARMING IN UZBEKISTAN	94-108

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Rashidova Dilfuza Ganievna</i>	
XIX ASR O'ZBEK SHOIRALARINING IJODIDA GUMANISTIK G'OYALAR VA IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLAR	109-113
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY-IJTIMOIY OMILLARI	114-118
<i>Samadov Jonmurod</i>	
JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING ILMIY-METODOLOGIK TAHLILI	119-123
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i>	
AXBOROT JAMIYATI VA MEDIA-MADANIYATNING NAZARIY-FALSAFIY TUSHUNCHASI	124-131
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alievna</i>	
EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	132-136
<i>Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna</i>	
ILMIY TIL VA FALSAFIY TERMINOLOGIYA: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	137-141
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich</i>	
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI	142-148
<i>Султанов Бахтиёр Бахтиёрович</i>	
ОБРАЗ ФИЗИЧЕСКОЙ РАЗВИТОЙ, ГЕРОИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ЭПОХУ АНТИЧНОСТИ	149-153
<i>Bozorov Suxrob Komilovich</i>	
MA'NAVIY TRANSFORMATSIYANING ISTIQBOLLARI: INNOVATSION G'OYA VA LOYIHALAR	154-157
<i>Kimsanbayeva Shaxnoza Bakridinovna</i>	
MILLIY O'ZLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'ZARO TA'SIRLAR	158-163
<i>Muxamedjanova Lalixon</i>	
GLOBALASHUV VA MADANIYATLARARO ARALASHUV	164-172

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI	173-180
<i>Mahmudova Umida Ural qizi</i>	
INTERNET DISKURSIDA FOYDALANILADIGAN EMOJILARNING LISONIY VA MADANIY JIHATLARI	181-189
<i>Madalov Navruz Ergashevich</i>	
IMPORTANT SUBJECTS OF COMPARATIVE AND CONTRASTIVE PHILOLOGICAL STUDIES AND TRANSLATION DIFFICULTIES OF STRUCTURAL-SEMANTIC MODELS OF PROVERBS	190-194
<i>Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich</i>	
XOTIRANOMALARDA ZAMON VA MAKON MASALASI	195-198

<i>Ochilova Habiba Akramovna</i>	
ISSUES IN THE CLASSIFICATION OF QUESTION SENTENCE TYPES IN LINGUISTICS	199-207
<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i>	
FILOLOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TIBBIY TARJIMA VA TALQINGA TA'SIRI	208-213
<i>Karabaeva Barno Bobir qizi</i>	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF METAPHORICAL EXPRESSIONS REFLECTING PERCEPTION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	214-219
<i>Aхунбабаева Наргиза Хамиджановна</i>	
ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ИСТОРИЧЕСКИХ И АРХАИЧНЫХ СЛОВ В ДОКУМЕНТАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ «ВЛАСТИТЕЛЬ СЕМИ СОЗВЕЗДИЙ»	220-226
<i>Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SON-GIBRID MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	227-236
<i>Mansurova Shohista Isroilovna</i>	
OT OBRAZI TUSHUNCHASI (ZAMONAVIY O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI MISOLIDA)	237-241
<i>Davranov Akmal Akramjonovich</i>	
IJTIMOIY TENGLIK TUSHUNCHASI (INGLIZ UTOPIYALARI VA O'ZBEK DOSTONLARI MISOLIDA)	242-246
<i>Yuldasheva Aziza Yuldashevna</i>	
TARJIMASHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING O'RNI	247-252
<i>Mirvaliyeva Malika Zoid qizi</i>	
SEMANTIKANING TARJIMADAGI AHAMIYATI	253-257
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
JADID ADABIYOTI VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI	258-262
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanova</i>	
THE MOOD OF LONGING FOR FREEDOM IN THE AGE OF BYRON	263-266
<i>Narzikulova Rayhona Ahmadovna</i>	
THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF IRONY	267-271
<i>Najmuddinov Muhammadjon</i>	
O'ZBEK TILIDA KO'P MA'NOLILIK, SINONIMIYA, OMONIMIYA VA ULARNING ELEKTRON TEZAURUSDA AKS ETISHI	272-278
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
LEKSIK-SEMANTIK DEVIATSIYA ILGARI SURISH VOSITASI SIFATIDA	279-284
<i>Tashpulatova Mukambar Axmetovna</i>	
KOMPYUTER LINGVISTIKASI VA SUN'IY INTELLEKTNING TILGA TA'SIRI	285-289
<i>Normamatov Farrux, Toshpo'latova Xusniya</i>	
GLOBAL KESIMDA INGLIZ MADANIYATINING LINGVOKULTUROGIK JIHATLARI	290-293
<i>Shonazarova Gulnoza, Madiyeva Madina</i>	
THE ROLE OF INTERNET RESOURCE IN IMPROVING TEACHING FOREIGN LANGUAGE: METHODOLOGICAL ANALYSIS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS	294-297

<i>Jo'rayeva Lola Tolibjonovna</i>	
IJTIMOIY TARMOQLARDA NEOLOGIZMLARNING BUGUNGI KUNDAGI QO'LLANILISHI	298-302
<i>Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna</i>	
TA'M VA TIL O'RTASIDAGI MUVOZANAT: TAOM DISKURSINING TARJIMA QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI	303-307
<i>Axmedov Shaxzod, Nazarov Vafokul</i>	
NEOLOGIZMLAR TADQIQI TARIXIGA DOIR	308-312
<i>Mustafayeva Sojida Ulashevna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA MERONIMIK MUNOSABATLI SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI	313-317
<i>Buriyeva Muxayyo Zokir qizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF MEAT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	322-326
<i>Berdiqulova Shaxnoza Ruziqulovna</i>	
YORDAMCHI SO'ZLARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA TURLARI VA YASALISHI: BOG'LOVCHILAR	327-330
<i>Shokirova Gulbahor Alimovna</i>	
NEMIS TILINI O'QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR	331-334
<i>Najmidinova Nafisa Ulja qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHILARGA ITALYAN TILINI O'RGATISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	335-339
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРАВА (ОТ ТРАДИЦИОННОГО К ЦИФРОВОМУ ПРАВУ)	340-344
<i>Masadikov Sherzodbek</i>	
ENFORCEMENT OF ARBITRATION AGREEMENT UNDER UZBEK LAW	345-351
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i>	
ONLINE GENDER-BASED VIOLENCE IN UZBEKISTAN: GAPS IN LEGISLATION AND THE PATH FORWARD	352-363
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li</i>	
KONTRABANDA UCHUN JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL	364-372
<i>Ходжаева Ширин</i>	
ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ВСЕМИРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗДРАВОХРАНЕНИЯ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА	373-378
<i>Каюмова Асалия Султномуродовна</i>	
ЭЛИТА ИНДУСТРИИ ВЕНЧУРНОГО КАПИТАЛА	379-384
<i>Mirzaraximov Baxtiyor, Shokirov Bobur</i>	
ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA KIBERXAVFSIZLIK STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHI VA SAMARADORLIGI: MA'LUMOTLARNI HIMoya QILISH CHORALARINING RIVOJLANISHI VA NATIJADORLIGI TAHLILI	385-392

<i>Суннатиллаева Сарвиноз Иззатулло кизи</i>	
ДИСКРЕЦИОННЫЕ ПОЛНОМОЧИЯ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И СОВете ЕВРОПЫ:	
ПРЕДЕЛЫ, КОНТРОЛЬ И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА	393-400
<i>Dilboboyev Nozimbek</i>	
CHET ELLIK INVESTORLARNING HUQUQIY MAQOMI HAMDA ULARNI	
DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA IMTIYOZ	
VA PREFERENSIYALAR BERISH	401-406
<i>Raximbayev O'tkir Fayzullayevich</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI	
TAKOMILLASHTIRISH MASALASIGA NAZAR	407-414
<i>Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li</i>	
HOZIRGI ZAMON ISLOM MOLIYA HUQUQI VA AN'ANAVIY HUQUQIY TIZIMLAR	
O'RTASIDAGI QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	415-423
<i>Zokirov Sardorjon Karimjon ugli</i>	
PROCEDURAL FEATURES OF PARTICIPATION DEFENSE COUNSEL	
AT THE PRELIMINARY INVESTIGATION	424-430
<i>Axmedova Guliruxsor Ravshanovna</i>	
BOLANI OLIB BERISH VA UCHRASHTIRISH BILAN BOG'LIQ ISHLARNI KO'RIB	
CHIQISH BO'YICHA SUD VA HUQUQIY AMALIYOTNING DOLZARB MUAMMO	
VA YECHIMLARI	431-436
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i>	
MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI	
YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH YUZASIDAN ISH YURITISH	
MAZMUNI	437-441
<i>Hakimov Sunnat Furqat o'g'li</i>	
SPORT JAMOAT BIRLASHMALARINING HUQUQIY TAHLILI	442-445
<i>Файзиев Фарход Фуркат угли</i>	
ЗНАЧИМОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В СОВРЕМЕННЫХ	
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ УСЛОВИЯХ	446-452
<i>Файзиева Гулрух Мухаммади кизи</i>	
МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЛИЩА	453-459
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich</i>	
TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA «MODDALARNING NURLANISH SPEKTRINI	
O'RGANISH» MAVZUSINI IT TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAMOYISH	
ETISH MASALALARI	460-466
<i>Hamdamova Nozima Muqimovna</i>	
BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI	
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	467-475
<i>Zulfixarov Ilhom Maxmudovich, Zulfikorova Munojat Mirzaxmatovna</i>	
IQTISODIY-IJTIMOIY GEOGRAFIK BILIMLAR BERISHDA MATEMATIK	
METODLARDAN FOYDALANISH	476-481
<i>Qurbanova Nigina Boboxo'jayevna</i>	
ESDALIKLAR — SADRIDDIN AYNIYNING UMR VA XOTIRA KITOBI	482-488

<i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna</i>	
KLASTER TIZIMIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING	
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	489-494
<i>Inoyatov Odiljon Sabitovich</i>	
TEKISLIK LARNING O'ZARO PARALLELIGI	495-500
<i>Жумамуратова Аибахар Нурмуханбетовна</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ	
КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ	
МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ	501-508

Received: 15 February 2025

Accepted: 20 February 2025

Published: 25 February 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF PRAGMATICS IN TRANSLATION STUDIES

Yuldasheva Aziza Yuldashevna

Tashkent State Transport University

Teacher of the Department of Foreign Languages

E-mail: yuaziza42@gmail.com

Abstract. This article is dedicated to analyzing the importance of pragmatics in translation studies. The research focuses on identifying the role of pragmatic elements in the translation process and their impact on the communicative purpose and cultural context of the text. Pragmatic elements are considered crucial in overcoming linguistic, cultural, and contextual differences during translation. The necessity of preserving hidden meanings and communicative functions in translation is emphasized, and significant conclusions are drawn based on semiotic and empirical analyses. The research substantiates the necessity of a pragmatic approach in translation studies from both scientific and practical perspectives.

Keywords: pragmatics, translation, communicative purpose, cultural context, pragmatic approach, semiotic analysis, linguistic differences, translation studies, hidden meaning, translator skills.

TARJIMASHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING O'RNI

Yuldasheva Aziza Yuldashevna,

Toshkent davlat transport universiteti

Chet tillar kafedrasи o'qituvchisi

dotsent Sh.A.Rustamova taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqola tarjimashunoslikda pragmatikaning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tarjima jarayonida pragmatik omillarning rolini aniqlash, ularning matnning kommunikativ maqsadi va madaniy kontekstga mosligiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada pragmatik unsurlar tarjima jarayonida lingvistik, madaniy va kontekstual tafovutlarni bartaraf etishda muhim omil sifatida qaraladi. Tarjima amaliyotida yashirin ma'no qatlamlari va kommunikativ vazifalarni saqlab qolishning zarurligi ko'rsatilib, semiotik va empirik tahlillar asosida muhim xulosalar chiqariladi. Tadqiqot natijasida tarjimashunoslikda pragmatik yondashuvning zarurligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pragmatika, tarjima, kommunikativ maqsad, madaniy kontekst, pragmatik yondashuv, semiotik tahlil, lingvistik tafovut, tarjimashunoslik, yashirin ma'no, tarjimon ko'nikmasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N36>

Kirish. Tarjimashunoslik bugungi kunda tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohalarining tutash nuqtasida joylashgan muhim fan sohasiga aylanmoqda. Matnning nafaqat lingvistik jihatlarini, balki uni yaratish va qabul qilish jarayonidagi pragmatik omillarni tahlil qilish tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli tarjimada pragmatikaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Pragmatika tilning qanday qo'llanilishi, xabarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabat, kontekstning matn mazmunini shakllantirishdagi roli bilan bog'liq bo'lgan tilshunoslik sohasi sifatida tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish

imkoniyatini beradi. Tarjimada pragmatik omillarni inobatga olish, matndagi yashirin ma’no qatlamlarini to‘g’ri anglash va ularni boshqa tilga mos ravishda ifodalash imkonini yaratadi.

Tarjimada pragmatikaning tutgan o‘rni, uning tarjima jarayoniga ta’siri va bu yo‘nalishdagi zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlili dolzARB hisoblanadi. Xususan, turli madaniy kontekstlarda pragmatik jihatlarning o‘zgacha talqin qilinishi va tarjimonning bu holatda to‘g’ri qaror qabul qilishining muhimligi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi – tarjimada pragmatik omillarning rolini tushunish va ushbu jihatlarni tarjima jarayonida samarali qo’llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bu mavzudagi tadqiqotlar til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatni yanada chuqurroq anglashga, shuningdek, sifatli tarjimalar yaratishda pragmatik yondashuvning o‘rni va ahamiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyyotlar tahlili. Tarjimashunoslikda pragmatika masalalari tilning lingvistik chegaralaridan chiqib, matnning kontekstual, kommunikativ va madaniy jihatlariga e’tibor qaratish zaruratini ta’kidlaydi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tarjima jarayonida pragmatik unsurlarni inobatga olish orqali matnning asl mazmuni va funksional xususiyatlarini to‘g’ri yetkazish muhim ekanligini ko’rsatadi. Jahon miqyosida G.Leech, D.Sperber va D.Wilson[1] kabi tilshunoslarning ishlari pragmatikaning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qildi. Ular til birliklarining kontekstga bog‘liq holda turli xil kommunikativ funksiyalarni bajarishini tahlil qilishdi.

Tarjimashunoslikdagi funksional yondashuv, xususan, K.Reib va E.Vermeer tomonidan ilgari surilgan “Skopos”[2.3] nazariyasi tarjimaning pragmatik maqsadini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, tarjimon matnning lingvistik jihatlari bilan cheklanib qolmasdan, uning kommunikativ vazifasini tushunishi va boshqa tilga mos holda qayta ifodalashi kerak. Masalan, reklama matnlarini tarjima qilishda matnning madaniy konteksti va qabul qiluvchi auditoriyaning ehtiyojlarini hisobga olish juda muhim.

Yana bir muhim yo‘nalish — Miriam A.Locher, Daria Dayter and Thomas C.Messerlilarning “Pragmatik tarjima”[4] konsepsiysi bo‘lib, unda tarjimonning asosiy vazifasi nafaqat asl matnni tarjima qilish, balki uning pragmatik mazmunini qabul qiluvchi auditoriyaga moslashtirish ekanligi ta’kidlanadi. Bunda lingvistik ekvivalentlik emas, balki kommunikativ muvaffaqiyatga erishish ustuvor hisoblanadi.

O‘zbek tarjimashunosligida ham pragmatika bilan bog‘liq izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy olimlardan S.G‘ulomova va Sh.Rustamova [5.6] o‘z tadqiqotlarida pragmatik aspektning tarjimada axborotning to‘g’ri va tushunarli yetkazilishidagi ahamiyatini ko’rsatib o‘tishgan. Ularning ishlarida tarjimada yashirin ma’nolarni anglash va ularni boshqa madaniy kontekstga mos ravishda yetkazish muhimligi qayd etilgan.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pragmatika tarjima jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, bu masalani chuqur tahlil qilish sifatli tarjimalar yaratishga xizmat qiladi. Bunda tarjimonning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda madaniy sezgirligi va pragmatik yondashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois, tarjimada pragmatik unsurlarni chuqurroq o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarjimashunoslikda pragmatikaning o‘rni va ahamiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanishni nazarda tutadi. Har bir metodning tadqiqotda o‘ziga xos vazifasi va ahamiyati mavjud bo‘lib, ularni uyg‘un holda qo’llash ilmiy natijalar aniqligini oshirishga xizmat qildi.

Qiyosiy metod orqali turli tillarda badiiy va ilmiy matnlarning tarjimasi o'rganildi. Asosiy e'tibor matnlarda pragmatik mazmunning qanday uzatilganiga qaratildi. Bunda tarjimada yuzaga keladigan pragmatik siljishlar va ularning sabablari tahlil qilindi. Masalan, inglizcha matnda bevosita ifodalangan pragmatik ma'no ba'zan o'zbekcha tarjimada yashirin yoki boshqacha talqin qilinishiga sabab bo'ladigan kontekstual tafovutlar o'rganildi.

Qiyosiy tahlillar natijasida pragmatik moslikka e'tibor bermagan holda amalgamoshirilgan tarjimalar kommunikativ xatoliklarga sabab bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, reklama va madaniy matnlarda pragmatik yondashuvning yo'qligi auditoriyada matnni noto'g'ri qabul qilish holatlarini keltirib chiqargan.

Pragmatikaning tarjimada to'g'ri qo'llanilishi uchun kontekstni aniqlash muhim omil hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot davomida tarjima matnlarining kontekstual jihatlari chuqr o'rganildi. Tarjimaning yakuniy shakli faqat lingvistik mazmun emas, balki madaniy va kommunikativ omillarni ham aks ettirishi kerak.

Masalan, humoristik matnlarning tarjimasida kulgi effektini saqlab qolish uchun kontekstual ma'lumotlarni tarjimaga qo'shish yoki ularni madaniy jihatdan moslashtirish zaruriyati kuzatildi. Ushbu metod orqali pragmatik moslashuv jarayonining tarjimada kommunikativ muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligi tahlil qilindi.

Semiotik tahlil pragmatik unsurlarni matndagi belgilar tizimi orqali o'rganishga yo'naltirilgan. Matnlarda ramziy obrazlar va belgilar ko'pincha yashirin pragmatik ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Tarjimada ushbu belgilarni to'g'ri talqin qilish va boshqa madaniy kontekstda ekvivalent shaklda uzatish muhimdir.

Tahlil davomida ba'zi madaniy va diniy ramzlarning tarjimasida pragmatik siljishlar kuzatildi. Masalan, o'zbek matnlarida milliy ramzlarning tarjimasida ba'zan muqobil ramz topilishi qiyin bo'lgan holatlar yuzaga kelgan. Ushbu holat semiotik tahlil yordamida chuqr tahlil qilindi.

Amaliyotda mavjud tarjimalarni bevosita tahlil qilish tadqiqotning yana bir muhim yo'nalishi bo'ldi. Amaliy tahlillar davomida turli matnlarda pragmatik unsurlarni hisobga olmaslikning qanchalik jiddiy oqibatlarga olib kelishi o'rganildi.

Misol uchun, xalqaro hujjalarning tarjimasida diplomatik odob va kommunikativ ehtiyojlarni inobatga olmaslik ba'zi xatoliklarga sabab bo'lgani kuzatildi. Shu bilan birga, o'quvchilar uchun mo'ljallangan ilmiy-ommabop matnlarning pragmatik unsurlarini tarjimada to'g'ri uzatish yanada qiziqarli va tushunarli matnlarni yaratishga xizmat qilishi aniqlandi.

Mazkur metodologiya tadqiqotda pragmatikaning tarjima jarayoniga ta'sirini har tomonlama o'rganish imkoniyatini berdi. Bir-birini to'ldiruvchi metodlar orqali lingvistik, madaniy va pragmatik omillar o'rtasidagi murakkab munosabatlar chuqr tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Pragmatik yondashuvning tarjima jarayonidagi ahamiyati ushbu tadqiqot orqali yanada kengroq ilmiy asoslashga erishildi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqotda tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni va ahamiyatini chuqr o'rganish orqali bir qator ilmiy va amaliy natjalarga erishildi. Tadqiqot davomida adabiy-tahliliy, qiyosiy, kontekstual, semiotik va empirik metodlardan foydalanildi. Bular tarjimada pragmatik unsurlarni aniqlash, ularning mazmun va kommunikativ funksiyalarini o'rganish, shuningdek, tarjimon faoliyatida pragmatik yondashuvning zarurligini isbotlash uchun xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarjima jarayonida pragmatik unsurlarni hisobga olish matnning kommunikativ maqsadini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tarjima qilingan matnning muvaffaqiyati faqat lingvistik moslik bilan emas, balki uning pragmatik jihatdan tushunarli va madaniy mos bo'lishi bilan ham belgilanadi.

Misol uchun, tadqiqot davomida tahlil qilingan reklama matnlarining tarjimalari ko'p hollarda pragmatik tafovutlarga duch kelgani aniqlandi. Ba'zi tarjimonlar reklama matnlarida kontekst va auditoriyaning ehtiyojlarini hisobga olmagan holda to'g'ri tarjima qilishga intilishgan. Bu esa natijada matnning asl maqsadi iste'molchini jalb qilishga erishmaslikka olib kelgan.

Tadqiqot davomida tarjimada pragmatik siljishlar yuzaga kelishining bir nechta asosiy sabablari aniqlandi:

- Lingvistik farqlar — Turli tillarning sintaksis, morfologiya va semantik tizimlari o'rtaqidagi farqlar pragmatik siljishlarga sabab bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi bevosita buyruqlar o'zbek tiliga tarjima qilinganda odatda yumshoqroq ifodalanadi.
- Madaniy tafovutlar — Madaniy ramzlar, odob-axloq me'yorlari va muloqot uslublari o'rtaqidagi tafovutlar tarjima jarayonida pragmatik siljishlarga olib keladi. Tadqiqot davomida xalqaro diplomatik matnlarning tarjimasida madaniy kontekstni inobatga olmaslik natijasida kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar aniqlangan.
- Auditoriya ehtiyojlarini hisobga olmaslik - Tarjima jarayonida qabul qiluvchi auditoriyaning til, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini e'tiborga olmaslik matnning qabul qilinishi qiyin bo'lishiga sabab bo'lgan.

Tarjima jarayonida matnning kontekstual jihatlarini to'g'ri aniqlash va tarjimada ularni saqlab qolish muhimligi isbotlandi. Ayniqsa, badiiy matnlarni tarjima qilishda kontekstning noto'g'ri talqini matnning kommunikativ vazifasini yo'qotishiga olib keladi. Masalan, xalq ertaklari va afsonalaridagi pragmatik unsurlar tarjimada yo'qolgan hollarda matnning mazmuniy va estetik qiymati sezilarli darajada pasaygani kuzatildi.

Tahlil qilingan bir qator badiiy matnlarda muallifning yashirin pragmatik niyatlarini tarjimada to'g'ri aks ettirilmagani sababli o'quvchiga matnning asl mazmuni yetkazilmagan. Bu esa tarjimonning kontekstual sezgirligi muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Semiotik tahlillar natijasida matnda yashirin pragmatik unsurlarni belgilash va ularni tarjimada to'g'ri talqin qilish muhim ekanligi aniqlandi. Belgilar tizimi orqali berilgan ma'nolar tarjimada ko'pincha e'tiborsiz qoldirilgani sababli qabul qiluvchi auditoriyada turli tushunmovchiliklar yuzaga kelgan.

Misol uchun, din va madaniyat bilan bog'liq ramziy belgilarni boshqa madaniyatga mos holda tarjima qilish ba'zan muqobil ramzlarni izlashni talab qilgan. Ushbu holat semiotik yondashuvning tarjimada pragmatik muvaffaqiyat uchun muhim ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Amaliyotda mavjud tarjimalarni o'rganish davomida qator xatoliklar va ularning pragmatik sabablарини aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan:

1. Xalqaro hujjatlar tarjimasida diplomatik odob va muloqotning nozik jihatlarini hisobga olmaslik ayrim hollarda pragmatik muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan.
2. Ilmiy-ommabop matnlarda lingvistik ekvivalentlikka haddan tashqari yopishib olish natijasida matnning qiziqarli va tushunarli bo'lishi pasaygan.

3. Badiiy asarlarda yashirin ma'no qatlamlarini tarjima qilishda ba'zi pragmatik unsurlar e'tibordan chetda qolgan.

Empirik tahlillar pragmatik omillarni hisobga olmaslik tarjimada nafaqat lingvistik, balki kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka ham olib kelishini isbotladi. Shu sababli tarjimonlarning pragmatik jihatlarga e'tibor berishlari muhim ekaniga ta'kidlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Tarjimashunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun pragmatika bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish zarur. Bu tarjimonlarda pragmatik sezgirlikni shakllantirishga yordam beradi.

- Tarjima jarayonida matnlarning kontekstual va semiotik jihatlarini chuqurroq tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilishi lozim.

- Tarjima qilinadigan matnlarning kommunikativ maqsadi va qabul qiluvchi auditorianing ehtiyojlarini hisobga olish bo'yicha maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqish muhim.

- Kompyuter dasturlaridan foydalangan holda pragmatik unsurlarni aniqlash va ularni tarjimada saqlab qolishga qaratilgan vositalarni ishlab chiqish zarur.

Tahlil davomida tarjimada pragmatikaning ahamiyati beqiyos ekanligi isbotlandi. Pragmatik unsurlarni inobatga olish orqali matnning mazmuni, kommunikativ funksiyasi va madaniy ahamiyatini to'g'ri yetkazish mumkinligi tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot tarjimonlar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi. Pragmatik yondashuv tarjima jarayonining ajralmas qismi sifatida takomillashtirilishi lozim.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish orqali bir qancha muhim xulosalar va ilmiy yondashuvlar ishlab chiqildi. Tarjimada pragmatik yondashuvning zarurligi amaliy tahlillar orqali yana bir bor tasdiqlandi.

Jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri bu tarjimonlarning pragmatik tafovutlarni sezishi va ularni tarjimada to'g'ri aks ettirish ko'nikmasining rivojlantirilishi zarurligidir. Chunki tarjima faqat tilning grammatik va semantik jihatlarini emas, balki madaniy, kommunikativ va kontekstual omillarni ham qamrab oladi. Aks holda, tarjima matnning asl maqsadidan uzoqlashishi va qabul qiluvchilar tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

Tahlillar davomida xalqaro diplomatik hujjatlar, reklama matnlari va badiiy asarlar tarjimasida pragmatik omillarga e'tibor berilmasligi muhim kamchiliklardan biri sifatida aniqlandi. Bu holatlar tarjimonlarning nafaqat lingvistik bilimlarga, balki pragmatik sezgirlikka ham ega bo'lishlari zarurligini ko'rsatadi.

Pragmatikaning tarjimada semantik va kommunikativ maqsadlarni muvofiqlashtirishda qanchalik muhim ekanligi ta'kidlandi. Tarjima amaliyatida kontekstual ma'nolarni saqlash uchun tarjimonning tahliliy va yaratuvchan yondashuvga ega bo'lishi lozimligi qayd etildi. Tadqiqot davomida xalq ertaklari, badiiy asarlar va diplomatik hujjatlar misolida pragmatik tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar chuqur tahlil qilindi.

Olingan muhim xulosalardan yana biri bu tarjima jarayonida texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish zarurligidir. Texnologiyalar matndagi pragmatik unsurlarni aniqlashda yordam berishi va tarjimon ishini sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin. Biroq, bu jarayon faqat texnologiyalarga tayanib bo'lmasligini, tarjimonning o'ziga xos sezgirligi hal qiluvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

Shuningdek, ushbu maqola natijalari tarjimashunoslikda yangi ilmiy izlanishlar uchun yo'l ochib beradi. Pragmatika bo'yicha yanada chuqurroq taddiqotlar olib borish va ularning natijalarini amaliyatga joriy qilish tarjimonlar faoliyatida muhim yutuqlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, tarjimada pragmatik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ishning natijalari tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qildi va tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam berdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. [Deirdre Wilson & Dan Sperber \(1998\) Pragmatics and time. In R. Carston & S. Uchida \(eds.\), Relevance theory: Applications and implications \(John Benjamins\), 1-22.](#)
2. Vermeer H. Skopos and commission in translational action // The Translation studies reader / edited by Lawrence Venuti. New York: Routledge, 2000. P. 221-232.
3. Reiß K., Vermeer H. J. Towards a General Theory of Translational Action: Skopos Theory Explained / Translated from the German by Christiane Nord, English reviewed by Marina Dudenhöfer. London & New York: Routledge, 2014. 221 p.
4. [Pragmatics and Translation Edited by Miriam A. Locher, Daria Dayter and Thomas C. Messerli \[Pragmatics & Beyond New Series 337\] 2023](#)
5. G'ulomova D. "Tarjimada obraz va xarakterni qayta yaratish muammosi" // *Tarjima san'ati*, 1973, 234-249-betlar. scienceproblems.uz
6. Rustamova S. "Text, Types of Translation and the Role of the Translator's Skill in Translation" // *Science Problems*, 2023.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/1 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).